



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



“BOBOTOG‘DA BIR OHU KO‘RDIM”.....

Mahfuza Muxtorova Shavkatjon qizi
TerDU o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoir she’rlarida ishtirok etgan tabiat va inson obrazlari o‘ziga xos ifodasi ko‘zga tashlanadi. Ijodkor har bir voqelik, hayot haqiqatiga o‘zgacha yondashib, badiiy mahoratini ishga soladi. Ijodkorning betakrorligi ham u yaratgan, topa olgan obrazlar qamrovi, hayotiyligi, ta’sirchan, samimiy va haqqoniyligidadir. Badiiy asarni obrazsiz tasavvur qilish mumkin emas.*

Kalit so’z: *Ona tuproq, "Otga dalda" she’ri, "Bobotog‘da bir ohu ko‘rdim" she’ri, Axtamquli, "Ko‘rinmay gulladim" kitobi.*

Shoir ijodida inson va tabiat obrazlarining o‘ziga xos ifodasi ko‘zga tashlanadi. Shoирning lirik qahramoni o‘zi kabi tabiat shaydosi, uning ba’zida insoniy qoliplarga sig‘maydigan tabiatga bo‘lgan munosabat og‘rintiradi. Zamondoshlari qiyofasida muqaddas Ona tuproqni, zabonsiz hayvonot va o‘simliklar dunyosiga zarar yetkazgan manfur insonlarni ko‘radi.

Shafoat Rahmatulla Termiziy she’riyatida tabiat hodisalari, jonivorlar hayotidan olingan, o‘quvchida lirik kayfiyat hosil qiluvchi topilmalar ham ko‘p. **Ot** timsolida lirik qahramon kechinmalarining botiniy kurashlari hayot voqealari asosida tasvirlanadi. Ma’lumki, turkiy xalqlar hayotida ot - insonning do‘sti, hamrohi, yaqin sirdoshi, orzular ushalishi sanalgan. Ot bilan bog‘liq rivoyat va afsonalar ko‘p bo‘lib, xalq dostonlarida ot tasviriga ham keng o‘rin berilgan. Shoирning "Otga dalda" nomli she’rini o‘qiganimizda, lirik qahramonning otga mehri, unga suyanishi ko‘z oldimizga keladi:

Tuyog‘ingdan chopsang, uchqun sachrar,
Dupurlaring tog‘ xayolin qochirar.
Kishnashlaring eshiklarni ochirar,
Manzil yaqin, kishnasangchi, tulporim³⁵.

Ot insonni manzilga yetkazuvchi sanaladi. She’rda tulpor obrazi nafaqat manzilga yetkazish balki, inson umr fursatining yaqin ekanini ham bildiruvchi obrazlardan biridir Shoир she’riyatining betakror, orginal obrazlaridan biri **tog‘** obrazidir. Ma’lumki, she’riyatda tog‘ ramziy obraz sifatida keng istifoda etiladi. Shoир o‘zi tug‘ilib o‘sgan vohadagi katta tog‘lardan biri Bobotog‘ni yangicha poetik ifodasini topadi. “Bobotog‘da bir ohu ko‘rdim” she’rida tog‘dagi tabiat go‘zalligi bilan birga g‘aroyib hodisalar haqida yozadi. Lirik qahramonning tog‘dagi go‘zal qizga oshiq bo‘lishi, biroq u qizning ohu ekanligi va yigitning ham buloq suvidan ichib tunda ohuga aylanishi, uning talabi bilan tog‘da kiyiklarni ovlovchi ovchilarni yo‘q qilishi haqida aytiladi.

³⁵ Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2003. – В.124.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



U nozlandi: “Sevging bo‘lsa rost,
Tozalaysan tog‘ni mergandan”.
Shundan beri olaman qasos
Ohularga ozor bergandan.
Odam bo‘lib ovchi ovlayman,
Ohu bo‘lib oq kiyikka yor.
Ertaknamo bu qismat ekan,
Majnunona taqdirimda bor³⁶.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, ohu obraziga shoir tabiatga bo‘lgan munosabatni va tabiat hech bir gunohni jazosiz qoldirmasligini ifodalaydi. Bobotog‘ Surxondaryodagi tabiat go‘zal va xushhavo, nabotot va hayvonot dunyosiga boy tog‘ tizmalaridan biri. Bu tog‘ni adib Mingziyo Safarov asarlarida tasvirlagandi: “Bobotog‘ boshqa tog‘lar bilan tutashmaydi. Sharqdagi Toshbuloq, Shimoldagi Hisor, Pomir, G‘arbdagi Boysun, Ko‘hitang, Janubdagagi To‘yin va Kayki tog‘lari qurshovida savlat to‘kib turadi. Bu yosh, navqiron tog‘lar davra olib, qur o‘rtasida yonboshlagan keksanining suhbatlarini tinglagandek”. Shoir ushbu tog‘ning go‘zal tabiat manzarasini “Bobotog‘ bahori” she’rida shunday tasvirlaydi:

Boshing uzra quyoshdan toj-zar,
Osmonlaring yulduz chamani.
Qoyalaring so‘ylar dostonlar,
Bobotog‘, sen bahor – Vatani.
Senga soqchi oppoq bulutlar,
Bahor ko‘shki, ey buyuk savlat!
Og‘ushingda tuman-barqutlar,
Qo‘rg‘oningdir qirlar ming qavat³⁷.

Shuningdek yuqoridagi she’rda tog‘ning viqori va salobati, ko‘hna va navqironligi ajib bir go‘zallik bilan tasvirlanadi: boshida “quyoshdan toj-zar”, osmoni “yulduzlar chamani”, qoyalari doston so‘ylagan”; undagi nabobat dunyosi tengsizligi birgina misrada ko‘rsatib beriladi: “El bahosi yonar: nafarmon, bo‘tako‘zlar olov tilla, zar”. “Bir yurtki, pari Surxon” she’rida u “Kun chiqarda nomi tog‘lar Bobosi, Shu tog‘ osha taraladi oq tonglarning sadosi. Ul sadoga hamohangdir Jayhunining sabosi, Mening yurtim erur bu yurt – yurtlarniining dilrabosi³⁸ deya Ona diyor madhida bu tog‘ning o‘rnii alohida ekanini yozadi. Muallif tog‘ manzaralari tasvirlangan she’rlarda uni suratga tushurilgandek juda go‘zal va real tasvirlaydi. Shu tariqa Shafoat Rahmatullo Termiziyy Bobotog‘ning mag‘rurlik, kenglik, tog‘larning bobosi kabi sifatlarga ega kishining timsoliga aylantiradi. Ko‘rib o‘tganimizdek, ona yurt tabiatini, uning purviqor tog‘lari shoir uchun badiiy obrazlar yaratish vositasidir.

³⁶ Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – Б. 77.

³⁷ Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – Б. 84.

³⁸ Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – Б. 88.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Umuman, azaldan she’ryatda tog‘ obrazi turli ma’nolarda qo’llanilgsn. Tog‘ – mag‘rurlik, sobitlik, yomonliklarni to’sguvchi, sabrli, g‘am-alamni ko’taradigan shaxs, tarix, qanoat, sabr, go‘zallik va yovga qarshi mardona kurashuvchi inson timsolidir. “To‘lg‘oq nomli to‘rtligida lirik qahramon bilan tog‘ suhbat quradi: “Tog‘” aytur: “Sukutim shoir o‘yiday”. Bunda ko‘ramizki, tog‘ – donishmand inson timsolidir.

Shuningdek, shoir **daraxt** obraziga juda katta ma’no yuklaydi. Ko‘plab she’rlarida daraxt, umuman uning turli navlari shoirning inson hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalarni ifodalashga xizmat qilgan. Ayniqsa shoirning to‘rtliklarida daraxt poetik obrazi turli ma’nolar kasb etgan. “Chinormasman...” she’rida shoir inson umri, yashashi haqida chuqur falsafiylikni ikki daraxt: tut va chinor poetic obrazini qiyosiy tasvirlash natijasida ko‘rsatib beradi.

Ko‘rinmay gulladim tutning guliday,
Tutday pisharim ham kelar-kelmay may...
Har chopqir lahzani maosh deb bildim,
Chinormasman, muddat moyanam mo‘may³⁹.

Ma’lumki, tut daraxti may oyida pishadigan, nihoyatda serhosil, ham tanasi, ham mevasi, ham bargi butun mavjudotga, odamzotdan tortib, hattoki qurt-qumursaqa, qushlargacha foydali sanaladi. Shoир doimo yaxshilik qilib yuradigan sahovatli insonlar umrini tutga mengzasa, afsuski inson umri o‘lchovli ekanligini, juda uzoq yashay olmasligini chinor obrazini qiyoslash orqali yoritadi. Taniqli shoir Axtamquli shoirning ushbu she’ri boshlanmasi bilan nomlangan “Ko‘rinmay gulladim” kitobi so‘zboshisida inson va tabiat uyg‘unligini juda orginal poetik obrazlarda ifodalaganini yuqori baholab shunday yozadi: “Misralar o‘zining zalvori, tarovati bilan kishini mahliyo etadi. She’r yozilmaydi, balki musavvirona chiziladi. Shuning uchun bo‘lsa kerak, she’rni o‘qiganimizda go‘zal manzaralar bizni o‘z og‘ushiga chorlayveradi.

Ko‘rinmay gulladim tutning guliday,
Tutday pisharim ham kelar-kelmay may...

Bilamizki, sanoqli daraxtlarga ko‘rinmay gullaydi. Ularning mevasi boshqa daraxt mevalarini totliligi bilan farq qiladi. Shoир satrlarlarining zalvori ham ana shunda bo‘lsa kerak. Tutning may oyida pishib, bolalar va qushlarning ovunchog‘iga aylanishi bilgan shoir May kelishiga hali vaqt borligini ta’kidlayotgandek...”⁴⁰.

³⁹ Шафоат Раҳматулло Термизий. Кўринмай гулладим. – Тошкент: Мухаррир. – 2008. –Б. 48.

⁴⁰ Шафоат Раҳматулло Термизий. Кўринмай гулладим. – Тошкент: Мухаррир. – 2008. –Б. 3-4.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – 2003. – Б.124.
2. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – Б. 77.
3. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – Б. 84.
4. Шафоат Раҳматулло Термизий. Озод сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди. – Б. 88.
5. Шафоат Раҳматулло Термизий. Кўринмай гулладим. – Тошкент: Муҳаррир. – 2008. –Б. 48.
6. Шафоат Раҳматулло Термизий. Кўринмай гулладим. – Тошкент: Муҳаррир. – 2008. –Б. 3-4.

